

GO'RO'G'LI ROMANIDA MODERNIZM ALOMATLARI

**Hamroqulova Gulzahro Aminjonovna**

*Buxoro davlat universiteti magistranti*

“Go’ro’g’li” turkumi dostonlari ko’pgina xalqlar orasida juda keng tarqalgan. Turkumga kiritilgan dostonlar har xil davrlarda yaratilgan. Manbalarda aytiishicha, o’sha dostonlarning ayrimlari ikki ming yil avval yaratilgan. Markaziy Osiyo versiyalari, xususan, o’zbek versiyalarining umumlashtirilishi natijasida ramziylashtirish yuqori darajaga ko’tarilgan. Bunda qahramonona o’tmish aniq, tarixiy voqealar ko’lamida emas, balki orzu darajasida, xalqning yuksak maqsadi ko’lamida tasvirlangan. Dostonlarda o’z avlodlariga mehr-oqibatli, ajdodlariga hurmat-ehtirom, barcha qavmi-qarindoshlarga yaxshilik qilish kabi g’oyalar ilgari surilgan. Voqealar shoshilmasdan, batafsil hikoya qilingan. Insoniyat taraqqiyoti to’la namoyon bo’lgan. Asl inson qanday bo’lishi kerakligi dostonning asosiy mavzusi bo’lib kelgan. Shu bois doston kishilarni yovuzlik, shafqatsizlik, johillik olamidan uzoqlashtirib, ma’nan ulg’aytirishga xizmat qiladi. Dostonidagi obrazlar ajdodlarimizning asl inson haqidagi orzu-xayollarini o’zida mujassamlashtirgan.

Nazar Eshonqulning qalamiga mansub bo’lgan “Go’ro’g’li” romanida esa mazkur doston xususida so’z yuritilmagan, ammo dostonidagi muhim mohiyat singdirilganini anglash mumkin. Masalan, dostonida bayon etilishicha, Go’ro’g’li go’rda dunyoga keladi. Roman qahramoni N. esa o’zining “men”i borligini, bu olamda tirik ekanligini, mavjudligini, isbot qilib berolmagan lahadga o’xshaydigan jamiyatda istiqomat qiladi. Go’ro’g’li har xil hududlarga borib, ajoyib qahramonliklarni namoyon etadi. N. esa asar davomida faqat o’zining tirikligini isbotlash harakatida bo’ladi. Biroq jamiyatning ma’lum bir qonunlari hamda tartiblari bunga yo’l bermaydi va oqibatda N. marhumlar kabi yashashdan boshqa imkoniyatni qo’lga kiritmaydi. U lahadga qaytishga majbur bo’ladi. Ana shu jarayon N.ning qahramonligi hisoblanadi.

Go’ro’g’lining qudrati uning go’rda tug’ilgani va o’z navbatida, N.ning fojeasi o’zining tirikligini isbotlamoqchi bo’lgani bilan izohlash mumkin. Boshliq yordamchisining qahramonga “siz ham barcha harflar kabi bir harfsiz, shu chalkashlikka xafa bo’lasizmi” deganida: N. o’zining harf emas, balki so’z ekanligini aytadi. Chunki harf hech bir ma’no anglatmaydi, so’zda esa ma’no, ya’ni, “men” mavjud bo’ladi.

F. Nitsshening “men”chilik falsafasiga e’tibor qaratilganda, jamiyat hamisha shaxsga qarshi turishini, individ va uning manfaatlari jamiyat tomonidan doim kamsitilishini, axloq va qonun ko’pchilik tomonidan alohida shaxsning erkini zanjirband qilish uchun o’ylab topilganini tushunish mumkin. Demak, jamiyat mavjudligining o’zi bilan alohida shaxsning erkiga daxl qiladi, uning o’ylari, tuyg’ulari va amallarini cheklashga urinadi. Holbuki, odam hech qanday sababga ko’ra o’z istaklarini jilovlamasligi kerak. Darvoqe, modernizm o’zining ilmiy-nazariy asosi sifatida F. Nitsshening “men”chilik falsafasiga tayangan.

Endi shu o'ringda modernizm va modern adabiyoti haqida to'xtalib o'tish ayni muddao bo'lar edi. Ta'kidlash lozimki, o'tgan asr G'arbiy Yevropa va Amerika adabiyoti va san'atida yetakchi oqim sanalgan modernizm tanqidiy realizm, xususan, sotsialistik realizm aqidalariga qarama-qarshi pozitsiyada turgan adabiy oqim bo'lgan. Modernizmning nazariy qarashlar tizimi va badiiy amaliyotida aristotelcha-gegelcha-kantcha klassik qarashlarga zid ravishda faqat borliq hodisalari hamda odamning muayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyat emas, balki insondagi zerikish, siqilish, tushkunlik, qo'rquv singari an'anaviy klassik san'at e'tiboridan chetda bo'lgan ruhiy tushuncha va holatlar ham badiiy tasvir obyeksi maqomiga ko'tarildi.

Muallifning izohlashicha, o'tgan asrning 90-yillarida yozib tugallangan "Go'ro'g'li" romani "insonning tirikligi va mavjudligini tan olmagan, insoniylik sha'ni va g'ururini xo'rlash va haqoratlash evaziga yashagan o'sha mustabid tuzum" suratini aks ettiradi. Modernchi yozuvchilar badiiy tasvirga yangicha ko'rinish berish, bir-biriga o'xshamaydigan odamlar ruhiyatining qaytarilmas manzarasini chizish uchun shakl, vosita, usul, uslub ustida adoqsiz ijodiy tajribalar o'tkazishdan erinmaydilar. Shafqatsiz borliq qarshisida yolg'iz va himoyasiz qolgan bu kimsaning tuyg'ular olami uni o'rab turgan voqelik bosimiga dosh berolmasligi oqibatida jamiyatdan begonalashib abgor bo'lishini tasvirlashda jiddiy ahamiyat qaratishadi.

"Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonidan epigraf qilib olingan "Aytsam yetgaymikan, enajon, zorim, yurakda g'amim ko'p, ichda zanglarim" satrlari yozuvchining g'oyaviy niyatini tushunish uchun kalit vazifasini bajaradi. Mazkur romanda sho'ro tuzumi jabrini tortgan, o'lmasidan oldin o'lgan bandaga aylantirilgan, hatto ismi – sharifi noma'lum, faqat "N" shaklida ataladigan bechora kimsa obrazining boshdan–oxir aziyatli, o'ta fojiona va haqoratlangan timsoli yaratilgan. O'zigacha bo'lgan barcha adabiy yo'nalishlardan farqli ravishda aynan modernizm o'z e'tiborini oddiy odamning ichki olamini tasvirlashga kirishadi. Modernchi ijodkorlar insonni o'rab turgan voqelik va ijtimoiy muhitni yo tasvirlamasdilar, yoxud uni o'zlarining badiiy niyatlariga mos keladigan tarzda istagancha o'zgartirib ko'rsatish yo'lidan borishadi.

"Go'ro'g'li" romani muallifi inson zotining iztiroblaridan, azoblaridan hikoya qiladi. Buning tagzamidida yozuvchi insonning e'zozlanishi va qadr topishini istaydi. Yozuvchi elni, millatni ma'rifatga chaqiradi, jaholatni qoralaydi. Millatparvarlik nimadan boshlanadi, jaholatga qarshi kurashgan va nafi ustidan g'alaba qozongan shaxsning o'zga millat vakillarini kamsitmasdan, o'z milliy qadriyatlarini avaylab, milliy g'urur va milliy birlik tuyg'usini namoyon etishidir. Modern adabiyot insoniyat tafakkurining yuksalishi unga baxtu saodat emas, balki azobu uqubat olib kelishi ham mumkinligini aniq insoniy taqdirlar misolida ko'rsatadi. Shuningdek, modernizm borliq va hayotga hech qanday tugallikka ega bo'lmagan, son-sanoqsiz umr va taqdirlarni o'z domiga tortib ketaveradigan uzluksiz oqim tarzida yondashish tajribasini boshlab beradi. Modernistik adabiyot badiiy tasvirning makoniy va zamoniyl doirasini cheklaydigan qarashlarni inkor etish orqali badiiy adabiyotning imkoniyatini yanada kengaytirmoqchi bo'ladi. Badiiy ijodni muayyan



talablarga bo'ysundiradigan klassik yondashuvlarga isyon o'laroq yuzaga kelgan modernizm turli-tuman ko'rinishlarga ega serqatlam falsafiy-estetik qarashlar tizimidan iborat bo'lib, bu yo'nalishdagi izlanishlar jamiyat hayotida keskin to'ntarishlar hamda qaltis kataklizmlar yuz bergan sharoitda, ayniqsa, kuchayadi. Negaki, inson ijtimoiy turmushidagi keskin chayqalishlar uning tuyg'ularini muvozanatdan chiqarib, ta'sirlanish va bu ta'sirni ifodalash yo'sinlariga tahrir kiritadi, qarashlar tizimini o'zgartirib yuboradi. Bu o'zgarishlar esa odamning badiiy didini yangilaydi.

Adib xos talqin orqali mohiyatga zimdan nazar tashlaydi, inson ruhiyatida kechayotgan uzil-kesil o'zgarishlarni asosli va mantiqiy tahlil qiladi. Yozuvchi Guli tilidan aytiladigan gaplar orqali asar qahramonining boshiga tushgan ko'rgiliklar sababini, qolaversa, umuman, odamlarning hayoti davomida turli sinovlarga uchrashi sababini o'sha ilohiy hikoya bilan bog'laydi. Sud manzarasi tasvirlangan lavhada inson omiliga munosabat yorqin ifodasini topgan. Odam uchun asosiy mo'jiza – odam, uning mavjudligi, ichki dunyosi, ruhiyatidir. Insoniyat tarixi ma'lum bir millat yoki biror shaxsning xohishi bilan hisoblashmaydi. Inson esa kurash farzandi. Inson qalbi hali ham o'sha ilk daf'a his etilgan va "zabt etish" boshlangan ezgulik va yovuzlikning kurash maydoni bo'lib turibdi. Shuning uchun adabiyotning vazifasi ham zarracha bo'lsada, o'zgargani yo'q. Men haqiqiy adabiyotni bosh mafkurasi – inson qalbidagi o'sha ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashni, farqni ko'rsatib berish, insonning ruhini bu kurashda matonatli qilishdir. Adabiyot odamzotga ana shu maqsadni anglatish uchun yaralgan.

Modernistik adabiyot uchun hayot haqiqati va an'analarga muvofiq amalga oshirilgan tasvirga nisbatan olam hamda odamni o'z xohishiga muvofiq tarzda tasvirlay oladigan san'atkorning erkin nazari ustuvor hisoblanadi. Modernistik asarlarda nimaiki tasvirlangan bo'lsa, u hamisha sodir bo'lgan va hech qachon sodir bo'lmagan; hamma yerda yuz bergan va hech qayerda yuz bermagan hodisalardir deyish mumkin.

Ayni jihatlarni "Go'ro'g'li" romanida ham uchratish mumkin. Ayniqsa, insonning o'zi bosh qadriyat ekani, u hech kim va hech narsa oldida burchli bo'lmasligi, o'z ko'ngil mayli va xohish-istaklarigagina bo'ysunib yashashi maqsadga muvofiq, degan to'xtam ustuvor bo'ladi. Modernizm da har bir odamga alohida yaratiq sifatida qaraladi, har qanday odam ham odamdir va uning atrofidagi tabiiy hamda ijtimoiy borliq uning istagu manfaatlariga muvofiq bo'lishi kerak, degan qarashga asoslangan "menchi"lik falsafasiga tayaniladi.

Ko'rinib turibdiki, u adabiyot va san'atdagi shakliy tajribalardangina iborat emas, balki asosan, olam mohiyatini anglash yo'lidagi falsafiy-ruhoniyl izlanishlar natijasidir. Inson real hayotda emas, balki xayolidagina baxtli bo'la oladi degan qarash modernizmning paydo bo'lishi va rivojlanishiga katta turtki bo'ldi deyiladi ayrim fundamental manbalarda. Realizm borliqni haqqoniy aks ettirishni oldiga maqsad qilgan bo'lsa, modernizm yangi reallik yaratishga harakatni kuchaytiradi. Chunki u mavjud reallikni tuzatib bo'lmaslini ilgari suradi. Tashqi dunyoda go'zallik yo'q, uni botindan qidirish kerakligi ta'kidlaydi. Modernizm o'zining barcha turli-tuman ko'rinishlarida real borliqdan yuksak mavjudlik yoki ongosti

makoni singari hodisalarni bilish va tatbiq etishga intiladi. U asl haqiqat, hayotning mohiyati aynan o'sha real borliqdan yuksak mavjudlikda yashiringanini e'tirof etadi.

Nazar Eshonqulning "Go'ro'g'li" romanini sobiq mustabit tuzumining jirkanch qiyofasini aks ettirish va undan xulosa chiqarish uchun e'lon qilganini aytgan bo'lsada, bu asar adabiyotchilarimiz tomonidan katta qiziqish bilan kutib olingan va ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Boisi, ushbu asarda G'arb va Sharq adabiyotining ifoda usullari aralash holda aks ettirilgan. Ifodalanishi nuqtai-nazaridan G'arbning ilg'or uslubiy izlanishlari, mazmuniy xususiyatiga ko'ra, o'zbek adabiyotining an'anasiga uyg'unlashgan jozibadorlikni namoyon etgan. N. xarakteri biror insonga o'xshamaydi. U o'ziga, o'zligiga boshqalardek, beparvo munosabatda bo'lmagani uchun ham rahbar yordamchisiga o'zining ismi borligini, ya'ni "men"i mavjud ekanligini aytadi.

Demak, modernizm shunchaki o'ylab topilgan yo'nalish emas, balki bashariyatning taraqqiyotida tarixiy, siyosiy va psixologik evrilishlar natijasida inson ko'nglida paydo bo'lgan ruhiy ma'naviy inqiroz bilan bog'liq hol – kayfiyatdir. Modernizm badiiy tilga ko'p o'zgachaliklar kiritgan, tasviriy ifoda borasida jiddiy islohotlar qilgan. Lekin u mavjud badiiy tilni mutlaqo inkor etmaydi. Aksincha, badiiy asar tili shaxsning ongli, ong osti va ong oqimi ta'siridagi ruhiy holatini ifodalaydigan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi.

Bir so'z bilan aytganda, "Go'ro'g'li" romanida modernizm alomatlari yaqqol namoyon bo'lib turibdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nazar Eshonqul "Go'ro'g'li" romani 17-56-betlar.